

O'zbekiston Respublikasi  
Moliya vazirligining  
2021 yil 26-avgust dagi  
№ 146 - sonli  
buyrug'i bilan

"TASDIQLANGAN"

**"FOND BOZORINING  
AXBOROT-RESURS MARKAZI"  
DAVLAT UNITAR KORXONASI**

**USTAVI  
(yangi tahrirda)**

Toshkent-2021 yil

## 1. UMUMIY QOIDALAR

1. Fond Bozorining "Axborot-Resurs Markazi" Davlat unitar korxonasi (keyingi o'rinlarda "korxonasi") O'zbekiston Respublikasi "qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonun (3 iyun 2015 yil O'RQ-387-son), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 19 martdagi PQ-1727-son "Fond bozorini yanada rivojlantirish choralari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.04.2021 yildagi PQ-5073-sonli "Kapital bozorini tartibga solish tizimini yanada takomillishtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2021 yil 13 apreldagi PF-6207-sonli "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat korxonalari to'g'risida"gi Nizom hamda qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish markazining 2015 yil 15 dekabrda 59-son buyrug'iga asosan tashkil etilgan.

2. Korxonasi yuridik shaxs hisoblanadi, alohida mol-mulkka, mustaqil balansga, bank hisob raqamlariga, shu jumladan valyuta hisob raqamlariga, emblemaga, shtamlarga va blankalarga, tovar belgilariga, O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan, o'z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va boshqa rekvizitlarga ega.

3. Korxonaning ta'sischisi (keyingi o'rinlarda "ta'sischi") O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (yuridik manzil: 100017, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, istiqlol ko'chasi, 29-uy)

4. Korxonaning rasmiy nomi:

a) davlat tilida:

to'liq nomi - "Fond bozorining axborot-resurs markazi" Davlat unitar korxonasi;

qisqa nomi - "Fond bozorining axborot-resurs markazi" DUK;

b) rus tilida:

to'liq nomi - Государственное унитарное предприятие "Информационно-ресурсный центр фондового рынка »;

qisqa nomi - ГУП "Информационно-ресурсный центр фондового рынка»;

v) ingliz tilida:

to'liq nomi - "Information - resource center of capital market" State unitary enterprise;

qisqa nomi - "Information - resource center of capital market" SUE.

5. Korxonasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni sotib olishi va amalga oshirishi, majburiyatlar olishi, suda da'vogar va javobgar bo'lishi, nizolarni hal etishda boshqa organlarda vakillik qilishi mumkin.

6. Korxonaning manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Buxoro ko'chasi, 10-uy.

## **2. KORXONA FAOLIYATINING MAQSADI VA PREDMETI**

7. Korxonada faoliyatining maqsadi Fond bozorining yagona dasturiy-texnik kompleksi (keyingi o'rinlarda kompleks) doirasida qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olishning, qimmatli qog'ozlar savdolari va qimmatli qog'ozlarga doir bitimlarga hisob-kitob-kliring xizmati ko'rsatishning yagona tizimini ishlash xolda saqlashdan iborat.

8. Korxonada faoliyatining asosiy predmeti:

Kompleks doirasida fond bozorida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, dasturiy maxsulotlardan, ma'lumotlarga ishlov berishdagi apparat vositalardan, aloka va axborot uzatish vositalaridan foydalanish va axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha choralar ko'rish;

fond bozorining statistik, taxlil va boshqa ma'lumotlari bazasini yaratish.

## **3. KORXONA FAOLIYATINI BOSHQARISH TARTIBI**

9. Korxonada o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun va qonunosti hujjatlari, mazkur ustav hamda ta'sischi qonun buyruqlariga amal qiladi.

10. Ta'sischi:

korxonada faoliyatining maqsadlari, predmeti va turlarini belgilash;

korxonada rahbarini tayinlaydi, mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq u bilan mehnat shartnomasini tuzadi;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda korxonada ijro etuvchi organi bilan tuzilgan mehnat shartnomasini muddatidan oldin to'xtatish;

har chorakda va yil yakuni bo'yicha direktorning xisobotini eshitadi;

korxonani qayta tashkil etish va tugatish to'g'risida qaror qabul qilish, tugatish komissiyasini tayinlash va tugatish balansini tasdiqlash;

korxonaga berilgan davlat mulkidan maqsadli foydalanilishini va saqlanishini, shuningdek uning begonalashtirilishi monitoringini olib boradi;

qonun hujjatlari va vakolatlari doirasida korxonada uchun majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladi;

korxonada tassarufida bo'lgan mol-mulkni sotish yoki boshqa usullar bilan begonalashtirishga qaror chiqaradi;

korxonada mol-mulki bilan tuzilgan bitimni haqiqiy emas deb e'tirof etish to'g'risida sudga da'vo bilan murojaat qilish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa ishlarni tashkil qiladi.

11. Ta'sischi qonun bilan korxonada kuzatuv kengashi joriy qilinishi mumkin, uning vakolatiga korxonaning faoliyati monitoringi va nazoratini olib borish kiradi.

12. Direktor korxonaning yakka ijroiya organi xisoblanadi va korxonada oldiga quyilgan vazifalarning bajarilishini tashkil etadi.

13. Direktor vazifalarini bajarishda Respublika qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish bo'yicha korxonada va ta'sischi qonun manfaatlarini ko'zlab harakat qiladi.

14. Korxonada xodimlarining soni shtat jadvali buyicha 24 kishidan iborat. Korxonada xodimlarining shtat jadvali buyicha soni ta'sischi bilan kelishgan holda o'zgartirilishi mumkin.

15. Direktor o'rnatilgan tartibda ta'sischi bilan kelishgan holda kompleksdan foydalanganlik uchun to'lov narxini belgilaydi. Bunda, belgilangan to'lov narxi kompleksni saqlash va undan foydalanish xarajatlaridan kam bo'lishi mumkin emas.

#### **4. USTAV FONDNING MIQDORI, UNI SHAKLLANTIRISH TARTIBI VA MANBAALARI**

16. Korxonaning ustav fondi 27 712 079 567,53 (yigirma etti milliard etti yuz o'n ikki million etmish to'qqiz ming besh yuz oltmish etti) so'm 53 tiyyinni tashkil etadi.

Korxonaning ustav fondi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 19 martdagi PQ-1727-sonli qarori 2 va 6-bandlari, Davlat mulki qo'mitasi hamda Koreya fond birjasi o'rtasida 2011 yil 23 avgustda tuzilgan Bosh shartnoma va 2014 yil 25 martda tuzilgan qo'shimcha shartnomaga asosan barpo etilgan kompleks, va uni olib kelish jarayonida qo'llanilgan bojxona imtiyozlarini qo'llash natijasida iqtisod qilingan mablag'lar va 2015 yilda ishlab chiqarilgan, Lasetti-2 CDX A/T, davlat raqami 01 262 MGA, dvigatel raqami 11150192DFFX0142, Kuzov raqami XWB5V31BVFA534714, kulrang (temnoseriya) avtotransport vositasi hisobiga shakllantirilgan.

17. Korxonada ustav fondi ta'sischi qaroriga ko'ra ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin.

18. Ustav fondi ko'paytirilgan yoki kamaytirilgan xollarda korxonada ustaviga o'rnatilgan tartibda tegishli o'zgartirishlar kiritilib yangi taxrirda tasdiqlanadi.

#### **5. KORXONA MULKINI TASARRUF ETISH SHARTLARI**

19. Korxonada mulkini tasarruf etish ta'sischi bilan kelishgan holda direktor tomonidan amalga oshiriladi:

asosiy vositalarni sotish, ularni ijaraga yoki garovga topshirish;  
mulkni boshqa yuridik shaxs ustav fondiga ulush sifatida qo'shish;  
yuridik shaxslarning aktsiyalari (ulushlari)ni va boshqa qimmatli qog'ozlarini sotib olish va sotish;  
mulkni korxonada faoliyati maqsadlariga muvofiq bo'lmagan boshqacha tarzda tasarruf etish.

#### **6. KORXONA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRILISHI**

20. Korxonada faoliyatini moliyalashtirish ta'sischi tomonidan tasdiqlangan xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi.

21. Korxonaning moliyaviy hisob-kitoblari o'rnatilgan tartibda uning buxgalteriyasi tomonidan amalga oshiriladi

## **7. KORXONA DAROMADLARINING SHAKLLANNISHI**

**22.** Korxonada daromadlari xizmatlar ko'rsatganligi uchun olingan daromadlar hamda qonun xujjatlari bilan ta'qiqlanmagan boshqa daromadlar hisobiga shakllanadi

## **8. FOYDANI TAQSIMLASH VA ZARARLARNI QOPLASH TARTIBI**

**23.** O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga barcha soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlar to'langandan keyin qolgan korxonaning sof foydasi ta'sischi qaroriga muvofiq taqsimlanadi.

**24.** Shuningdek, korxonada ustav fondining 15 foizi miqdorida zaxira fondini bir oy davomida shakllantiradi. Zaxira fondi korxonaning har yillik sof foydasining 5 foizini ajratib borish yo'li bilan shakllantiriladi.

**25.** Korxonada o'z ihtiyorida qoladigan sof foydaning qismi hisobiga ta'sischi tomonidan tasdiqlanadigan miqdorlarda boshqa fondlarni tashkil etishi mumkin.

**26.** Korxonada boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga moliyaviy yordam ko'rsatishga haqli emas, bundan qonun xujjatlariga muvofiq korxonada xodimlariga beriladigan moliyaviy yordam mustasno.

## **9. KORXONA DIREKTORINING HUQUQLARI, MAJBURIYATLARI VA JAVOBLARIGI**

**27.** Direktor korxonada nomidan ishonchnomasiz faoliyat ko'rsatadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalaydi, korxonada nomidan bitimlarni belgilangan tartibda amalga oshiradi, xodimlarni ishga qabul qiladi, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzadi, o'zgartiradi va to'xtatadi, kadrlarni tayyorlash va o'qitish, ularning malakasini oshirish chora-tadbirlarini ko'radi, buyruqlar chiqaradi, ichki tartib-qoidasi va xo'jalik faoliyatini tartibga soladigan hujjatlarni tasdiqlaydi, konun xujjatlarida belgilangan tartibda ishonchnomalar beradi va korxonaning xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa funktsiyalarni amalga oshiradi.

**28.** Direktor korxonaning moliyaviy holatidan kelib chiqqan holda, korxonada xodimlarining oylik ish haqlariga ustamalar belgilash, bayram munosabatlari bilan korxonada xodimlarini rag'batlantirish, mukofotlash, to'y va dafn marosimlari, xodimlarning muayyan tantanali nishonlanadigan yillik tarixga ega sana (yubiley) yoshlarni nishonlashda moddiy yordamlar ko'rsatish va boshqa huquqlarga ega.

**29.** Direktor ta'sischi oldida korxonada faoliyati to'g'risida har chorak va yil yakuni buyicha hisobot beradi.

**30.** Direktor o'z huquqlarini amalga oshirishda va vazifalarini bajarishda korxonada manfaatlarini ko'zlab harakat qilishi kerak hamda davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlarning, ish haqining o'z vaktida to'lanishi, mehnat huquqlari va munosabatlaridan hamda ularga tenglashtirilgan to'lovlardan kelib chiqadigan barcha talablarning qondirilishi, ishlab chiqarish faoliyati bilan bevosita



bog'lik bo'lgan ehtiyojlar uchun pul mablag'larining o'tkazilmaganligi, o'zining harakati (harakatsizligi) tufayli, shu jumladan korxonaga berilgan mulk yo'kolgan taqdirda yetkazilgan zararlar uchun konun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi..

## **10. YILLIK XISOBOTLARNI TUZISH, TEKSHIRISH VA TASDIQLASH**

**31.** Korxonada hisobot davri tugagach ta'sischi va vakolatli organlarga moliyaviy hisobotni va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hujjatlarni taqdim etadi hamda hujjatlarining saqlanishi va ularning belgilangan tartibda davlat tomonidan saqlashga berilishi uchun javob beradi.

**32.** Korxonada faoliyatini nazorat qilish konun hujjatlarida belgilangan tartibda ta'sischi va boshqa vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi.

**33.** Korxonada faoliyati qonun hujjatlariga muvofiq har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tkaziladi va tekshiruv natijasida olingan auditorlik xulosasini ta'sischi taqdim etadi.

## **11. KORXONANING JAVOGBARLIGI**

**34.** Korxonada o'z majburiyatlari bo'yicha o'ziga tegishli mol-mulk bilan javob beradi. Korxonaning mol-mulki etarli bo'lmagan taqdirda muassis korxonaning majburiyatlari bo'yicha subsidiyalar javob beradi.

**35.** Korxonada muassisning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi.

## **12. KORXONANI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH TARTIBI**

**36.** Korxonada ta'sischi qaroriga ko'ra qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yoxud sud qaroriga binoan qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi mumkin.